



TIL MA'NAVIYAT JILVAKORI

**Abdujabborova Muqaddas Yo'ldoshevna
Davronova Malika Davronqulovna**

Abdulla Oripov ijod maktabi ona tili va adabiyot maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: mazkur maqolada til millatning, xalqning bamisoli bir ko'zgusi, ma'naviy boyligi, ma'naviy ko'zgusi ekanligi yoritib berilgan. Shuningdek, buning asosiy sabablari, nima uchun bizga o'z tilimiz zaruru ekanligi, undan to'g'ri foydalanish to'g'risida ko'rsatmalar berilib o'tilgan.

Annotation: this article explains that language is an ideal mirror, spiritual wealth, spiritual mirror of the nation, the people. Also, the main reasons for this, why we need our own language, and instructions on how to use it correctly have been given.

Аннотация: в данной статье объясняется, что язык является идеальным зеркалом, духовным богатством, духовным зеркалом нации, народа. Также даны основные причины этого, зачем нам нужен свой язык, и инструкции, как правильно им пользоваться.

Kalit so'zlar: til, davlat tili, ma'naviyat va ma'rifat, ta'lim to'g'risidagi qonun, ta'lim tizimi, O'zbek tili.

Key words: language, state language, spirituality and enlightenment, law on education, education system, Uzbek language.

Ключевые слова: язык, государственный язык, духовность и просвещение, закон об образовании, система образования, узбекский язык.

Tilni shunchaki "aloqa vositasi" deguvchilar adashadi. U insonning ichki dunyosini ko'rsatadi, olamni idrok qilishiga yordamlashadi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilab beradi. U dunyoni anglashga yo'l bo'lib, til milliy g'ururdir. Til insonning birlamchi ehtiyoji, anglash, bilish, so'zlash, aloqa-munosabat vositasi, mansub-xoslik omili bo'lgani bois hamisha jamiyat ravnaqining asosiy mezonlaridan bo'lib kelgan. Jumladan, o'zbek tili o'zbek millatining uzoq tarixiy ildizlariga, o'z siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas qadriyati, ulkan ma'naviy yutug'idir. Bugungi taraqqiyotiga qadar shonli va sharafli yo'llarni bosib, keskin va shiddatli to'fonlarni yengib kelayotgan milliy tilimiz davlat maqomida yanada ulug'vor va ustuvorligini namoyon qilmoqda.

Turli darajadagi ijtimoiy munosabatlar, xalqaro aloqalar, fan-texnika taraqqiyoti, globallashish jarayonlari milliy til qiyofasiga ham muayyan darajada o'z ta'sirini o'tkazmoqda, ichki va tashqi tahdidlar xavfini oshirmoqda. Shulardan biri yaqin kunlar oralig'ida munosabat-munozara maydonini egallab, keng jamoatchilikning tanqidu e'tiroziga uchrayotgan "rus tilini ikkinchi rasmiy davlat tili sifatida e'lon qilish" tashabbusini ilgari surgan ayrim "ziyolilar"ga ham tegishlidir.



Mamlakatda o'zbek tili rasmiy davlat maqomiga ega yagona til sifatida Konstitutsiya va qonunlar orqali huquqiy mustahkamlab qo'yilganligiga ham e'tibor qaratmasdan, ikkinchi tilni rasman tan olish jamiyatni ikkiga bo'lish, millat ajratishga olib kelishini, turli ko'rinishdagi noroziliklar sodir bo'lishini inobatga ham olmasdan bunday ko'r-ko'rona taklifni ilgari surish talab qilinayotgan ikkinchi tilni, shu til vakillarini o'z milliy tili, milliy qadriyatlari, milliy hamiyatidan ustun qo'yish, ustuvor ko'rishni anglatadi. Amaldagi davlat tiliga nisbatan bepisandlik, hurmatsizlikni ko'rsatadi. Ushbu o'rinsiz va asossiz vayronkor g'oyani bugun barcha millatsevar, vatanparvar jamoatchilik, ma'rifat ahli keskin qoralab, o'z milliy tiliga, o'zbek tilining asriy va azaliy maqom-martabasiga muhabbat-ehtiromini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoq sahifalari orqali turli ko'rinishlarda namoyish qilmoqda. Albatta, o'zligini qadrlagan, o'z millatiga daxldorligini his qilgan, milliy g'urur va iftixorini yuqori tutgan har bir fuqaro bunday yo'l tutishi tabiiy. Ushbu muammo sabab, bugun jamiyatning amaldagi rasmiy davlat tili bo'lgan o'zbek tiliga munosabati yana bir elakdan o'tmoqda, sinovlarda toblanmoqda va qat'iy lashmoqda.

Shu o'rinda, rus tiliga rasmiy maqom berish tarafdorlarining "yo'l boshchilari" ilmu fan, san'at sohasining ilg'or vakillari ekanligi yanada hayratli emasmi?, degan haqli savol tug'ildi. Darhaqiqat, inson har qancha bilim egallamasin, iqtidorli bo'lmasin, shon-shuhrat qozonib, mansab pog'onalaridan ko'tarilmasin, uning qalbida o'z milliy qadriyatlariga nisbatan ehtirom-e'zoz bo'lmasa, ma'naviy-ma'rifiy ulug'vorlik etagidan tutmasa, bir kun kelib oqsashi, qoqilishi, yiqilishi, milliyat taqdiri, jamiyat taraqqiyotiga xavf tug'dirishi ham turgan gap.

Tajribalarda ayonki, ko'p til bilish – rivojlanishning ilg'or qonuniyati, muvaffaqiyat garovi. Ammo o'z milliy tilingni unutish, o'zga tillar bilan chog'ishtirish, qorishtirish evaziga emas! O'zga tillarni o'rganish orqali taraqqiyotga erishishni yoqlab chiqqan ma'rifatparvar jadidlar ham bu borada ehtiyotkor va mas'uliyatli bo'lishgan. Xususan, Abdulla Avloniy o'z qayg'usini "Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan-kun unutmak va yo'qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arab, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz... Zig'ir yog'i solub moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur", - degan o'tli fikrlarida ta'sirchan oshkor qilgan. Bu fikrlar ayni kunda yana ham dolzarblashmoqda.

Milliy tilga e'tibor va ehtirom millatsevarlik, vatanparvarlik, oliyjanoblikning yorqin ifodasi. Milliy til – milliy urf-odat, qadriyatlarni, milliy ma'naviy meros-manbalarni bilish, o'zlashtirish, yetkazib berish, targ'ib etishda, o'zlikni anglash, anglatishda birlamchi vosita. O'z milliy tiliga muhabbati yo'q, o'zga tillarga ehtiromi yuksak insonni millat vakili, vatanparvar shaxs deb atash mumkinmi? Til millatga, jamiyatga, Vatanga daxldor oliy tushuncha. Shu boisdan bu borada ehtiyotkor bo'lish, ajdodlardan meros buyuk ne'mat ildiziga bolta urmaslik talab qilinadi.



Masalaga munosib yechim izlab olib borilgan tahliliy kuzatishlar o'zbek tilining davlat tili maqomidagi rutbasini yanada mustahkamlash, qonuniy asoslarni kengaytirish, qat'iyashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi. Nafaqat ayni shu kunlarda, balki o'tgan yillar davomida ham millatsevar tilshunoslar, ma'rifat ziyolilarini o'zbek tilining rasmiy talablarini kuchaytirish, milliy martabasini oshirish, barcha soha vakillarining adabiy til me'yorlariga amal qilishiga erishish kabi dolzarb muammolar hamisha o'ylantirib, munozaraga chorlab kelgan. Shu asoslarga tayanib, quyidagi vazifalarni kechiktirmasdan hal qilib borish talab etiladi:

- Davlat tili to'g'risidagi qonunni tahririy ko'rib chiqish va unda milliy rasmiy tilga munosabatni, adabiy me'yor talablarini kuchaytirish;

- davlat tili barqarorligiga to'siq bo'luvchi o'zbek alifbosi bilan bog'liq ikkilanish muammolariga qonuniy chek qo'yish, yozuv birligi, aholining savodxonlik darajasini oshirishga erishish;

- O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasiga tayanib, o'zbek tilining rasmiy maqomini mustahkamlash;

- milliy qadriyatlarning asosiy timsoli bo'lgan o'zbek tilining rasmiy va milliy maqomini targ'ibu tashviq etuvchi ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'lamini kengaytirish, bu borada maqsadli, manzilli va tizimli tadbirlar tashkil qilish;

- milliy ma'naviy merosga muhabbat va ehtirom, avvalo, oiladan boshlanishi, oila qadriyatlar beshigi ekanligini e'tiborga tutgan holda farzand tarbiyasida ona tilini puxta egallash, milliy tilni, qadriyatlarni avaylash, ijtimoiy daxldorlik, vatanparvarlikni shakllantirish usullari tavsiya qilingan metodik qo'llanmalar yaratish;

- ta'lim bosqichlari, tashkilot, muassasa va korxonalarda o'zbek tiliga davlat maqomi berilgan kun arafasidagi bayramdan tashqari jarayonlarda ham davlat tilining rasmiy talablari bilan tanishtiruvchi, mohiyatini tushuntiruvchi, milliy til ruhiyatini yuksaltiruvchi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqot tadbirlarini muntazam yo'lga qo'yish;

- mamlakatning har bir fuqarosida rasmiy davlat tiliga nisbatan hurmat va ehtirom tuyg'ulari barqarorligini ta'minlash ishlarini tizimli olib borish.

O'zbek tilining nufuzi bugungi kunda xalqaro maydonda ham ortib bormoqda. Bir qator xorij mamlakatlaridan kelib, yurtimizda o'zbek tilini o'rganib ketayotganlar ham ko'payib bormoqda. Turli mamlakatlardagi o'quv yurtlarida o'zbek tili o'rganilmoqda. Keyingi yillarda davlat tili borasida erishilgan eng kata yutuqlarimizdan yana bir, bu hududlarda atoqli alloma va adiblarimiz nomlari bilan atalgan ijod maktablarining barpo etilayotganidir.

Til – millat ko'zgusi, ma'naviyat sarchashmasidir. Shu bois ona tilimizni hurmat qilish, uning boy imkoniyatlarini o'rganish barchamizning asosiy burchimiz bo'lishi lozim. O'zbek tilining rivoji, taraqqiyoti, teran tadqiqi va tashviqi borasida hali ko'p ishlarni qilishimiz zarur. Borligimiz, davlatimiz ramzi bo'lgan bebaho boyligimizga mas'ullik hissi hech birimizni hech qachon tark etmasin. Men o'z fikrimni A. Oripovning 4 misra she'ri bilan yakunlamoqchiman.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshkent sh., 2020-yil 20-oktabr, PF-6084-son
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 1997-yi, 29-avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", 1997-yi, 29-avgust.
4. Ibrohim Haqqul. Mushohada yog`dusi. T- 2009.